

Neylon kabi mustahkam va okeanda 92% ga parchalanuvchi polimer yaratildi

// 04.06.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/neylon-kabi-mustahkam-va-okeanda-92-ga-parchalanuvchi-polime>

Jahon kimyo sanoati xabarlari

Neylon kabi mustahkam va okeanda 92% ga parchalanuvchi polimer yaratildi



uzkimyosanoat.uz



@uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat

Koreyalik olimlar sintetik materiallar, xususan, to'qimachilik va baliq ovlash vositalaridan okean ifloslanishini keskin kamaytiruvchi yangi biologik parchalanadigan polimerni ishlab chiqdi.

Yangi material neylonning mexanik xususiyatlarini saqlab qoladi, lekin bir yil ichida dengiz muhitida 92% dan ko'proq parchalanadi. Ishlanma Advanced Materials jurnalida chop etilgan. Kiyim va to'r ishlab chiqarishda keng qo'llaniladigan neylon va shunga o'xshash sintetik materiallar okeanlarda o'nlab yillar davomida saqlanib qoladi.

Mavjud biologik parchalanadigan muqobil mahsulotlar, odatda, mustahkamligi va issiqlikka chidamliligi jihatidan samaradorligi pastroq, bu ularning amaliy qo'llanilishini cheklaydi.

Doktor Xyon-Yol Chon va doktor Xyo-Chjon Kim boshchiligidagi Koreya Kimyoviy Texnologiyalar Institutti (KRICT) tadqiqotchilari guruhi mustahkamlik uchun javob beradigan (neylonga muqobil) biologik parchalanadigan efirli bog'lanishlarni amid bog'lanishlar bilan birlashtiradigan innovatsion polimer — poliefiramid (PEA)ni ishlab chiqdi.

Olimlarning ta'kidlashicha, neylon 6 (shuningdek, poliamid 6 yoki kapron sifatida ham tanilgan) kaprolaktamdan olingan sintetik poliamid. U mustahkamligi, moslashuvchanligi, ishqalanishga va kimyoviy moddalarning ta'siriga bardoshliligi kabi noyob xususiyatlari tufayli mashhur material. Neylon 6

to'qimachilik, muhandislik plastiklari va plyonkalarda keng qo'llaniladi. Materialning tabiatdagi hatti-harakatlarini baholash uchun olimlar laboratoriyadan tashqari Poxan shahri qirg'oqlarida ham sinovlar o'tkazishgan.

Bu tabiiy dengiz muhitida bioparchalanishning samaradorligini tasdiqladi.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati